

MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA YANGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI KURSINI O'QITISHNING MAZMUNI VA METODIKASINI RIVOJLANTIRISH

(UMUMTA'LIM MAKTABLAR MISOLIDA)

Murodova Zarina Rashidovna

Osiyo Xalqaro Universiteti dotsenti

Jumayev Shaxboz Kamol o'g'li

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Ta’limda Axborot Texnologiyalari” fakulteti magistranti.

Nurmamatova Marjona Dilmurod qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti “Ta’limda Axborot Texnologiyalari”

fakulteti magistranti.

Annotatsiya: So'nggi yillarda ta'lim muassasalarida interaktiv elektron o'quv kontentlaridan o'quv quroli sifatida foydalanish keng ommalashmoqda. Ushbu an'anaviy texnologiyaning mavjudligi, arzonligi va o'quvchilar uchun elektron ta'lim afzalliklarining tobora ortib borayotganligini tan olinishi bilan bog'liq. Ushbu maqola ta'lim tizimida zamonaviy elektron o'quv kontentlarini yaratish va foydalanishning asosiy talablari, yo'nalishlari, omillari va samaradorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy elektron o'quv kontentlari, axborot kontentlaridan foydalanishning asosiy talablari, yo'nalishlari, omillari va samaradorligi.

Bugungi kunda yurtimiz ta'lim tizimini tubdan isloh etish jarayonida ta'lim tizimini moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va undan samarali foydalanishni ta'minlash, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda[1]. Ayni paytda ta'limga yangi axborot texnologiyalarini keng joriy etish, ta'lim tizimidagi axborot-kontent markazlari faoliyatini zamonaviy talab va mezonlar asosida tashkil etish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotir. Respublikamizda ta'lim tizimini kompyuter, multimediali elektron qo'llanmalar, internet, elektron ma'lumotlar bazasi, masofadan o'qitish kabi yangi axborot texnologiyalari asosida tashkil etishni yanada yuqori darajaga olib chiqish hamda mashg'ulot jarayonida o'quv, o'qitish, modellashtirish, amaliy, axborotli va boshqa dasturlardan keng foydalanish oid bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki ta'lim tizimini zamonaviy elektron axborot kontentlari asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

- fanning ilg'or yutuqlari, elektron axborot kontentlaridan foydalanish, mashg'ulotni o'quv-tarbiyaviy jarayonning zamonaviy qonuniyatlari asosida tashkil etish;
- mashg'ulotda elektron axborot kontentlari yordamida barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash, talabalarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart sharoitlarni yaratish;

- elektron axborot kontentlari asosida talabalar anglab etadigan fanlararo bog‘liqliklarni o‘rnatish, ilgari o‘rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, talabalarning rivojlanish darajasiga tayanish;
- elektron axborot kontentlari shaxsning har tomonlama rivojlantirish-ni motivatsiyalash va faollashtirish, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning barcha bosqichlari mantiqiyliigi va emotsionalligini oshirish;
- elektron axborot kontentlari asosida zarur bilim, ko‘nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish va mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish xamda har bir mashg‘ulotni puhta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashhis va bashorat qilish.

Ma‘lumki, birgina shaxsiy kompyuterlarning paydo bo‘lishi va ulardan barcha sohalarda keng foydalanish ta‘lim tizimini imkoniyatlari tubdan o‘zgartirdi, shu bilan birga Internet tarmog‘i ta‘lim tizimiga yangi elektron axborot kontentlarini tatbiq etish bo‘yicha yanada katta imkoniyatlar yaratmoqda. Ta‘lim tizimida ta‘lim dasturlari bilan ta‘minlangan kompyuterlarni deyarli barcha didaktik masalalarni, shu jumladan axborotni yig‘ish, saqlash va uzatish, o‘quv-tarbiyaviy jarayonini boshqarish, talabalar bilimni nazorat va tahlil qilish, mashqlarni bajarish, o‘quv jarayoni rivojlanishi haqida ma‘lumotlarni to‘plash kabi boshqa masalalarni hal etishda tatbiq etish mumkin.

Zamonaviy elektron axborot kontentlaridan foydalanish ta‘lim tizimining quyidagi asosiy yo‘nalishlarini aniqlashga imkon beradi:

- ta‘lim tizimida o‘qitiladigan barcha fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish darajasini oshirishni ta‘minlash;
- ta‘lim tizimida talabalarning qobiliyati, iqtidori, mustaqil fikrlash, kommunikativ malakalarni shakllantirish, fanlar bo‘yicha bilim egallashni rivojlantirish, malaka va ko‘nikmani shakllantirishga imkon beruvchi jarayonlarga e‘tiborni kuchaytirish.
- talabalar bilimni nazorat qilish uchun elektron axborot kontentlaridan avtomatlashtirilgan test sinovlari o‘tkazish, baholash va boshqarishda keng foydalanish, ya‘ni pedagogik jarayonning samaradorli-gini oshirish.

Elektron axborot kontentlaridan foydalanish orqali malaka oshirish tizimining sifati quyidagi ikki asosiy omil bilan aniqlanadi: ta‘lim tizimiga tatbiq etilayotgan elektron axborot kontentlari va zamonaviy dasturiy kontentlarining sifati.

SHuning uchun ham bugungi kunda respublikamizda ta‘lim tizimi sifatini oshirish uchun elektron ta‘lim kontentlarini ishlab chiqish, takomillashtirish va ta‘lim jarayoniga joriy etish maqsadida ta‘lim muassasalari texnik imkoniyatlari keng zamonaviy dasturiy kontentlar, ya‘ni ilg‘or kompyuter texnologiyalari, grafik va video tahrir qilish dasturlari bilan ishlash imkonini beradigan kompyuter sinflari bilan jihozlanmoqda. Bu esa ta‘lim tizimini elektron axborot kontentlari asosida tashkil etishning zamonaviy texnologiyalaridan, shu jumladan multimedya va masofadan o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish imkonini bermogda.

Masofaviy o‘qitish texnologiyasiga ko‘ra talaba qaerda va qanday holatda bo‘lishidan qat‘iy nazar muayyan ta‘lim muassasasi ta‘lim dasturini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi[2].

Ulardan ta'lim tizimida bilim olayotgan talabalarning mustaqil bilim olishida, o'tilgan mavzularni takrorlashda, hamda olgan bilimlari asosida nazoratlar topshirishda o'rgatuvchi, axborot-ma'lumotli, nazorat qilish dasturlarining qo'llanilishi axborot va kompyuter texnologiyalari asosida masofadan o'qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun ana shu funksiyalarning hammasini o'zida mujassamlashtiruvchi elektron o'quv mashg'ulotliklarni yaratish, hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Elektron o'quv mashg'ulotlar biron bir fan, ya'ni aniq sohaga yoki ta'lim yo'nalishiga mo'ljallangan bo'lib, o'qitish jarayonida ulardan qanday bilim olish va o'rganishda foydalanadilar. Talabalarning mustaqil bilim olishida, o'tilgan mavzuni takrorlashda hamda olgan bilimlarini tekshirishda trenajyor, ma'lumotli, o'yin, nazorat qilish dasturlarini qo'llash, ularni o'rganilayotgan mavzu bo'yicha amaliy bilim va malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi hamda talabalarning amaliy qobiliyatlari va malakalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Lee va Kim (2019)* maqolasida mashinasozlik o'rganish yondashuvlarining biznes tizimlaridagi afzalliklari va ularga qo'llanilishi, maqoladagi metodologiyaga qo'shimcha tarzda kiritildi.
2. *Murodova, Zarina, and Mehrangez Jo'raqulova. "Mustaqil ta'limni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish." YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT 2.3 (2024).*
3. *Rashidovna, Murodova Zarina, and Juraeva Nodira. "WORKS IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF HIGHER EDUCATION." INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE. Vol. 1. No. 3. 2024.*
4. *Murodova, Zarina Rashidovna, Tursun Rustamovich Shafiyev, and Dilafruz Buronovna Hasanova. "TECHNOLOGY AND RELEVANCE OF CREATING AN ELECTRONIC TRAINING COURSE." Scientific progress 3.3 (2022): 861-867.*
5. *Rashidovna, Muradova Firuza, and Murodova Zarina Rashidovna. "Information Technologies in Teaching and Education." EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION 3.2 (2023): 41-46.*
6. *Rashidovna, Murodova Zarina, and Primov Shaxzod Abduqodirovich. "TA'LIM JARAYONIDA INTELEKTUAL SALOHİYATNI ANIQLASH VA SHAKLLANTIRISH." PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI 2.2 (2025): 107-110.*
7. *Boboqulova, M. (2024). KVANT NAZARIYASINING TABIATDAGI TALQINI. B ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE (T. 3, Выпуск 7, сс. 68–81).*
8. *Muxtaram Boboqulova Xamroyevna. (2024). GEYZENBERG NOANIQLIK PRINTSIPINING UMUMIY TUZILISHI . TADQIQOTLAR.UZ, 34(3), 3–12.*
9. *Muxtaram Boboqulova Xamroyevna. (2024). THERMODYNAMICS OF LIVING SYSTEMS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 303–308.*
10. *Muxtaram Boboqulova Xamroyevna. (2024). QUYOSH ENERGIYASIDAN FOYDALANISH . TADQIQOTLAR.UZ, 34(2), 213–220.*
11. *Xamroyevna, M. B. (2024). Klassik fizika rivojlanishida kvant fizikasining orni. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 6(1), 9-19.*
12. *Xamroyevna, M. B. (2024). ELEKTRON MIKROKOPIYA USULLARINI TIBBIYOTDA AHAMIYATI. PEDAGOG, 7(4), 273-280.*

13. Boboqulova, M. X. (2024). FIZIKANING ISTIQBOLLI TADQIQOTLARI. *PEDAGOG*, 7(5), 277-283.
14. Xamroyevna, M. B. (2024). RADIATSION NURLARNING INSON ORGANIZMIGA TASIRI. *PEDAGOG*, 7(6), 114-125.
15. Xamroyevna, M. B. (2024). TERMOYADRO SINTEZ REAKSIYALARINI BOSHQARISH MUAMMOSI. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 1(3), 62-68.
16. Xamroyevna, M. B. (2024). SUYUQ KRISTALLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI. *Modern digital technologies in education: problems and prospects*, 1(2), 32-38.
17. Xamroyevna, M. B. (2024). PLAZMA VA UNING XOSSALARI. PLAZMANING QO‘LLANILISHI. *Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology*, 1(3), 73-78.
18. Xamroyevna, M. B. (2024). TERMOELEKTRIK HODISALAR. *Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology*, 1(3), 102-107.
19. Xamroyevna, M. B. (2024). OCHIQ TIZIMLARDA ENTROPIYANING LOKAL KAMAYISHI VA DISSIPATIV STRUKTURALAR. *Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology*, 1(3), 86-92.
20. Xamroyevna, M. B. (2024). O‘TA O‘TKAZUVCHANLIK VA UNING KVANTOMEXANIK TALQINI. *Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology*, 1(3), 93-101.
21. Xamroyevna, M. B. (2024). FUNDAMENTAL O‘ZARO TA‘SIRLAR TURLARI. *Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology*, 1(3), 79-85.
22. Bobokulova, M. (2024). Alternative energy sources and their use. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(9), 282-291.
23. Boboqulova, M. X. (2025). YUQORI CHASTOTALI SIGNALLARNI UZATISH USULLARI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(2), 32-35.